

## ISLOM MOLIYASINI TASHKIL ETISH ASOSLARI: O`ZBEKISTON MISOLIDA

*Ismoilov Diyorbek Islom O'g'li  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyo moliya bozori va jahon industriyasida keng o‘rin olayotgan islam moliyasining rivojlanish tendensiyasi tahlil etilgan. Islam moliyasining rivojlanish tarixi bayon etilgan, islam bank tizimining jahon va bu sohada yetakchi bo‘lgan mamlakatlar bank tizimidagi o‘rniga baho berilgan. O‘zbekistonda islam moliyasini rivojlantirish imkoniyatlari va bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar yo‘nalishlari belgilab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** islam, islam moliyasi, islam banklari, islam moliya tizimi, moliyaviy xizmatlar, islam moliyasi tamoyillari.

### KIRISH

O‘zbekistonda jadal ravishda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda barcha sohalar qatori moliya sektorini ham rivojlantirishga va yangi manbalar bilan boyitishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ana shu maqsadda jahonda ommaviylashib borayotgan, ayniqsa, taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlari va AQShda faollashib borayotgan Islom moliyasini mamlakat milliy moliya bozorida joriy etishga e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, «mamlakatimizda islam moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi» [1]. Shu munosabat bilan mamlakatimizda islam iqtisodiyoti va moliyasining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish uchun zaruriyat vujudga keldi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda investitsiyalarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Jahon iqtisodiy forumining global raqobatbardoshlik bo‘yicha hisobotida (The Global Competitiveness Report) ko‘rsatilishicha, asosiy muammolardan biri biznesni investitsiya bilan ta’minlash muammosi hali hanuz uchramoqda [2]. Shuning uchun aynan Islom banklari tomonidan taklif qilinayotgan investitsiyalarini jalb qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi asoslardan va mulohazalardan kelib chiqib, yangi O‘zbekiston sharoitida moliyaviy manbalari va faoliyat yo‘nalishlari hamda xizmat turlarli jahondagi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy taraqqiyotga muvofiq rivojlangan Islom banklarining investitsiyalarini jalb etishni rag‘batlantirishga va xizmatlaridan foydalanish bilan bog‘liq faoliyalarni qo‘llab-quvvatlashga oid

muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi kelib chiqmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘tgan asrning 50-60 yillarida Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq musulmon o‘lkalarining mustaqillikka erishishlari hamda 70-yillarda jahon bozorida bo‘lib o‘tgan neft inqirozlari hozirgi zamонавиј Islom moliyasi tizimining vujudga kelishiga turki bo‘ldi. Neft eksport qiluvchi Fors ko‘rfazi davlatlarining moliyaviy ahvoli yaxshilana boshladi. Islom olamining davlat arboblari, siyosatshunoslari va diniy ulamolar bir necha marta yig‘ilishib, musulmonlar uchun zarur Islom moliyasi va Islom bank tizimini yaratish haqida anjumanlar o‘tkazishdi. Natijada, 1975 yil musulmon davlatlarining hamkorligida Saudiya Arabistonida joylashgan Islom Taraqqiyot Banki (Islamic Development Bank) tashkil etildi. Mazkur yilning o‘zida shu mintaqaning bir qancha tadbirkorlari ishtirokida dunyoning birinchi xususiy Islombanki – Dubay Islom Banki (Dubai Islamic Bank) tashkil etildi. Ikki yildan so‘ng yana uchta Islom banki: Misrning Faysal Islom Banki (Faisal Islamic Bank of Egypt), Sudanning Faysal Islom Banki (Faisal Islamic Bank of Sudan) va Quvaytning Kuwait Finance House nomli Islom banklari faoliyat boshladi [2, 3].

O‘zbekistonda Islom moliyaviy xizmatlar bilan ham Islom Taraqqiyot Bankining ICD kompaniyasi tashkil qilgan “Taiba Leasing” kompaniyasi shug‘ullanmoqda. Hozirgi paytda respublikaning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida jiddiy islohotlar olib borilayotgani, monetar siyosat va bank-moliya tizimida ulkan o‘zgarishlar bo‘lib turgan bir paytda Islom moliyasini joriy qilish masalasini bugungi kun tartibiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Mahalliy tadbirkorlar bilan moliya-investitsiya masalalari bo‘yicha yaqindan ishlaydigan mutaxassislarining fikricha, Islom moliyasi va Islomiy bank faoliyatiga mamlakatimizda qiziqish va talab katta. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida tadbirkorlik sub’ektlari orasida ham, oddiy aholi orasida ham islam moliyaviy xizmatlar talabgorlari ko‘payib bormoqda.

Islom moliyasi mamlakatimizga bir qancha ijobji o‘zgarishlar olib kelishi mumkin, shular qatorida:

Bank tizimining faollashuvi. 2017 yil boshida respublika bank tizimining jami kredit portfeli YaIMga nisbatan o‘rtacha 26 foizni, jalb qilingan bank omonatlari esa YaIMning 18 foizini tashkil qildi. *Bloomberg* ma’lumotlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkichlar kam daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda 47% va 33%, rivojlangan davlatlarda esa 60-70%, ayrimlarida hatto 100% dan ham yuqori.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Hozirgi kunda xorijiy investorlarni jalb qilish bo‘yicha barcha mamlakatlar raqobat maydoniga kirishgan. O‘zbekiston qatoridagi davlatlar o‘z mablag‘lari bilan kiradigan investorlar uchun qulay qonunchilik va soliq bazasi, infratuzilma va barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib

berishmoqda. Xususan, arab va musulmon davlatlardan keluvchi investorlar uchun Islomiy banklar va *takaful* sug‘urta kompaniyalarini tashkil qilishmoqda. Yirik investitsion dasturlarga ega bo‘lgan O‘zbekistonning ham kerakli Islom moliya infratuzilmasini yaratishi hozirgi zamon talabidir.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, Islom moliya tizimi taraqqiyot yo‘lining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy-ma’rifiy va boshqa sohalarida jadal islohotlar va o‘zgarishlar olib borayotgan O‘zbekiston uchun bugungi kun talabidir. Mamlakatimizda islom moliya tizimini joriy etish bir qator masalalarni hal etishni talab qiladi, jumladan:

- O‘zbekistonda islom moliyasi tizimini joriy etish uchun moliya sohasiga oid me’yoriy-huquqiy xujjatlarni o‘rganish va ularga zarur o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish zarurati vujudga kelgan;
- O‘zbekiston fond bozori va bank tizimiga islom moliyasini muvaffaqiyatli va samarali joriy etishda soha bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan kadrlar masalasini hal etish kerak;
- Islom moliya bozorlarining investitsiya imkoniyatlarini hisobga olgan holda mamlakatning xalqaro islom moliya tizimiga integratsiyasini jadallashtirish uchun ilmiy asoslangan, bir necha bosqichga ega bo‘lgan strategiya ishlab chiqilishi zarur.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. “Islomiy moliya tarixi”, Navid Muhammad, 2015 yil, <https://www.islamicfinance.com/2015/02/an-overview-of-the-history-of-islamic-finance>;
2. “Islomiy moliyaga kirish”, Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy, Maktaba Ma’ariful Quran Karachi – 75180, 2007 yil, Mehran Printers, Karachi.
3. “Inqirozdan keyingi islohotlar: Fikr yuritish lozim bo‘lgan mulohazalar”, Mufti Muhammad Taqiy Usmoniy, 2010 yil, <https://attahawi.com/2010/03/18/post-crisis-reforms-some-points-to-ponder-by-mufti-muhammad-taqi-usmani/>.
4. “2017 yil Dunyo Islomiy Moliya Tizimi Hisoboti”, Edbiz Consultingkompaniyasi, 2017 yil